

SUG‘URTALOVCHILARNING TO‘LOV QOBILIYATI NORMATIVI: MILLIY TALABLAR VA SOLVENCY II / ICS STANDARTLARINING QIYOSIY TAHLILI

Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich
Xalqaro innovatsion universiteti “Iqtisodiyot va moliya” kafedrasi dotsenti v.b.,
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0009-0003-1297-315X;
e-mail: dilshodbaxriyev5000@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyatini tartibga soluvchi milliy talablar Yevropa Ittifoqining Solvency II tizimi va Sug‘urta nazorati xalqaro assotsiatsiyasining 2024-yilda qabul qilingan Xalqaro kapital standarti (ICS) bilan uch ustun – miqdoriy talablar, boshqaruv va nazorat, oshkoralik bo‘yicha 17 ta element kesimida qiyoslangan. Milliy tizimning xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasi 34 balldan 13 ball (38 foiz) deb baholandi. 2025-yil ma’lumotlari bo‘yicha umumiy sug‘urtada mukofotlarning 20 foizi miqdoridagi normativ marja 2,75 trln so‘mni, Solvency II mukofot tavakkalchiligi koeffitsiyentlari bo‘yicha hisoblangan ko‘rsatkich esa 4,82 trln so‘mni (diversifikatsiyasiz, 1,75 baravar) tashkil etishi aniqlandi. Eng katta farq bozor mukofotlarining 28 foizini tashkil etuvchi kredit sug‘urtasiga to‘g‘ri keladi. Tavakkalchilikka asoslangan to‘lov qobiliyati tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish yo‘l xaritasi taklif etilgan.
Kalit so‘zlar: to‘lov qobiliyati, to‘lov qobiliyati marjasi, Solvency II, Xalqaro kapital standarti, tavakkalchilikka asoslangan kapital, sug‘urta nazorati.

Abstract: The paper compares Uzbekistan’s solvency rules for insurers with the EU Solvency II regime and the Insurance Capital Standard (ICS) adopted by the International Association of Insurance Supervisors in 2024, using 17 elements grouped into three pillars: quantitative requirements, governance and supervisory review, and disclosure. The national framework scores 13 out of 34 points (38%). For 2025, the normative margin for general insurance computed as 20% of premiums amounts to UZS 2,75 trillion, while a measure based on Solvency II premium-risk factors amounts to UZS 4,82 trillion before diversification (1,75 times higher). The largest gap concerns credit insurance, which accounts for 28% of market premiums. A staged roadmap towards risk-based solvency supervision is proposed.
Keywords: solvency, solvency margin, Solvency II, Insurance Capital Standard, risk-based capital, insurance supervision.

Абстрактный: В статье национальные требования к платежеспособности страховщиков Узбекистана сопоставлены с режимом Solvency II Европейского союза и Международным стандартом капитала (ICS), принятым Международной ассоциацией органов страхового надзора в 2024 году, по 17 элементам трёх компонентов: количественные требования, система управления и надзор, раскрытие информации. Уровень соответствия национальной системы международным стандартам оценён в 13 из 34 баллов (38%). По данным за 2025 год нормативная маржа по общему страхованию, рассчитанная как 20% премий, составляет 2,75 трлн сумов, а показатель, рассчитанный по коэффициентам премиального риска Solvency II, – 4,82 трлн сумов (без учёта диверсификации, в 1,75 раза больше). Наибольший разрыв приходится на страхование кредитов, на которое приходится 28% премий рынка. Предложена дорожная карта поэтапного перехода к риск-ориентированной системе платежеспособности.
Ключевые слова: платежеспособность, маржа платежеспособности, Solvency II, Международный стандарт капитала, риск-ориентированный капитал, страховой надзор.

Kirish (Введение / Introduction)

Sug‘urta tashkilotining to‘lov qobiliyati – uning sug‘urta shartnomalari bo‘yicha qabul qilingan majburiyatlarni har qanday sharoitda bajara olish qobiliyatidir. Shu sababli to‘lov qobiliyatiga qo‘yiladigan talablar sug‘urta nazoratining markaziy vositasi hisoblanadi: ular sug‘urtalovchi qancha kapitalga ega bo‘lishi kerakligini va kapital yetishmay qolganda nazorat organi qanday choralar ko‘rishini belgilaydi.

Jahon amaliyotida ikki xil yondashuv mavjud. Birinchisi – sug‘urta mukofotlari yoki to‘lovlarining belgilangan foizi sifatida hisoblanadigan oddiy to‘lov qobiliyati marjasi. Bu yondashuv 1970-yillarda Yevropa Ittifoqi direktivalari bilan joriy etilgan va “Solvency I” nomini olgan. Ikkinchisi – sug‘urtalovchi o‘z zimmasiga olgan tavakkalchiliklarning haqiqiy hajmiga mos ravishda hisoblanadigan tavakkalchilikka asoslangan kapital talabi. Yevropa Ittifoqi 2016-yildan Solvency II tizimiga o‘tgan, Sug‘urta nazorati xalqaro assotsiatsiyasi (IAIS) esa 2024-yil dekabrda xalqaro faoliyat yurituvchi sug‘urta guruhlari uchun Xalqaro kapital standartini (ICS) qabul qilgan [1; 2].

O‘zbekistonda sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati 2008-yilda tasdiqlangan Nizom bilan tartibga solinadi va u mohiyatan Solvency I modeliga asoslanadi [3]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-son qarorida kapital yetarliligi va to‘lov qobiliyatining xalqaro standartlarini tavakkalchilikka asoslangan yondashuv asosida bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasini ishlab chiqish vazifasi qo‘yilgan [4], 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son qarorida esa sug‘urta zaxiralari va to‘lov qobiliyati metodologiyalarini Solvency II standartlariga moslashtirish belgilangan [5]. Shu bilan birga, milliy talablar xalqaro standartlardan qaysi jihatlari bo‘yicha va qanchalik farq qilishi tizimli baholanmagan.

Ushbu maqolaning maqsadi – O‘zbekistondagi to‘lov qobiliyati talablarini Solvency II va ICS standartlari bilan element-bo‘yicha qiyoslash, farqning miqdoriy ko‘lamini bozor ma’lumotlari asosida baholash va islohotning ketma-ketligi bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Обзор литературы / Literature review)

To‘lov qobiliyati tizimlarini qiyoslash bo‘yicha xalqaro adabiyot keng. M. Eling, H. Shmayzer va J. Shmit Solvency II loyihasini tahlil qilib, uning asosiy afzalligi kapital talablarini sug‘urtalovchining tavakkalchilik profiliga bog‘lash ekanini, biroq standart formulaning murakkabligi kichik kompaniyalar uchun qo‘shimcha xarajat tug‘dirishini ko‘rsatgan [6]. M. Eling va I. Holtsmyuller AQShning tavakkalchilikka asoslangan kapital (RBC) tizimi, Solvency II,

Shveytsariya to‘lov qobiliyati testi va boshqa tizimlarni qiyoslab, ularning farqi asosan tavakkalchilik o‘lchovi, kalibrlash darajasi va aktivlar hamda majburiyatlarni baholash usulida ekanini aniqlagan [7]. I. Holtsmyuller esa AQSh RBC standartlari Solvency II ga nisbatan tavakkalchilikka kam sezgir ekanini ko‘rsatadi [8].

R. Doff Solvency II ning tanqidiy tahlilida tizimning muvaffaqiyati nafaqat kapital formulasiga, balki ikkinchi ustun – boshqaruv tizimi va tavakkalchiliklarni o‘z-o‘zini baholash (ORSA) sifatiga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi [9]. J.D. Kammins, S. Harrington va R. Klayn AQShda tavakkalchilikka asoslangan kapital ko‘rsatkichlari sug‘urtalovchilarning bankrotligini oldindan aniqlashda cheklangan kuchga ega ekanini, shuning uchun kapital talablari erta aralashuv (prompt corrective action) mexanizmlari bilan to‘ldirilishi kerakligini ko‘rsatgan [10]. A. Sandstryom to‘lov qobiliyati tizimlarining tarixiy evolyutsiyasini Solvency I tipidagi oddiy marjadan tavakkalchilikka asoslangan modellarga o‘tish jarayoni sifatida tavsiflaydi [11].

Muallifning avvalgi ishlarida O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari [12] va sug‘urta bozori barqarorligini baholash ko‘rsatkichlari [13] o‘rganilgan. Mazkur maqola ularni davom ettirib, asosiy e’tiborni to‘lov qobiliyati normativining tuzilishiga qaratadi. Adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, rivojlanayotgan bozorlar, xususan Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun milliy to‘lov qobiliyati talablarini xalqaro standartlar bilan element-bo‘yicha qiyoslovchi tadqiqotlar kam.

Tadqiqot metodologiyasi (Методология исследования / Research methodology)

Tadqiqot ikki bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda milliy to‘lov qobiliyati talablari [3], PQ-4412 [4] va PQ-108 [5] qarorlari Solvency II direktivasi va uni amalga oshiruvchi 2015/35-son Delegatsiyalangan reglament [14; 15] hamda IAIS ning sug‘urta nazorati asosiy tamoyillari va ICS [1; 2] bilan qiyoslandi. Qiyoslash uchta ustun bo‘yicha 17 ta elementda olib borildi. Har bir element 0 dan 2 gacha baholandi: 0 – milliy tizimda o‘xshash talab mavjud emas; 1 – talab qisman mavjud yoki faqat rejalashtirilgan; 2 – talab mohiyatan xalqaro standartga mos. Shu tariqa maksimal 34 ball bo‘lgan muvofiqlik indeksi hisoblandi.

Ikkinchi bosqichda farqning miqdoriy ko‘lami baholandi. Istiqbolli loyihalar milliy agentligining 2025-yil yakunlari bo‘yicha hisobotidagi sug‘urta klasslari kesimidagi mukofotlar [16] asosida ikki ko‘rsatkich hisoblandi: (a) milliy mukofot usuli bo‘yicha normativ marja – mukofotlarning 20 foizi, 11- va 13-klasslar uchun 1,5 baravar oshirilgan holda [3, 9-band]; (b) Solvency II standart formulasidagi mukofot tavakkalchiligi uchun kapital – $3 \cdot \sigma \cdot V$, bu yerda σ – 2015/35-son reglamentning II va XIV ilovalarida belgilangan segment standart chetlanishi, V – mukofotlar hajmi [15]. Sug‘urta klasslari Solvency II segmentlariga ularning mazmuniga ko‘ra moslashtirildi, bir necha klass bo‘yicha birgalikda tuzilgan shartnomalar uchun tarkibiy klasslarning o‘rtacha koeffitsiyenti olindi.

Hisob-kitob bozor darajasida, qayta sug‘urtani, segmentlar o‘rtasidagi diversifikatsiyani hamda zaxira, bozor, kontragent va operatsion tavakkalchiliklarni hisobga olmagan holda bajarildi. Shuning uchun (b) ko‘rsatkich to‘liq kapital talabi emas, balki ikki tizimdagi tavakkalchilik koeffitsiyentlarining nisbatini ko‘rsatuvchi qiyosiy o‘lchov hisoblanadi. Minimal kapital miqdorlarini qiyoslash uchun Markaziy bankning 2026-yil 30-oktabrdagi rasmiy kursi (1 yevro = 13 361,67 so‘m) qo‘llanildi [17].

Qiyoslash elementlarini tanlashda IAIS ning sug‘urta nazorati asosiy tamoyillari (ICP 14 – baholash, ICP 16 – korxona miqyosida tavakkalchilikni boshqarish, ICP 17 – kapital yetarliligi, ICP 20 – oshkoralik) asos qilib olindi [1]. Bu yondashuv natijalarni faqat Yevropa Ittifoqi tajribasi bilan emas, balki xalqaro miqyosda tan olingan umumiy mezonlar bilan ham solishtirish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты / Analysis and results)

Milliy to‘lov qobiliyati talablarining tuzilishi. Amaldagi Nizomga ko‘ra, to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti haqiqiy to‘lov qobiliyati marjasining normativ marjaga nisbati sifatida hisoblanadi va kamida 1 bo‘lishi kerak [3, 6–7-bandlar]. Umumiy sug‘urtada normativ marja uchta miqdorning eng kattasi sifatida aniqlanadi: minimal ustav kapitali; oxirgi 12 oydagi mukofotlarning 20 foizi; oxirgi 36 oydagi sug‘urta to‘lovlari va bildirilgan, lekin tartibga solinmagan zararlar zaxirasining 10 foizi. Mukofot va to‘lov usullari qayta sug‘urtani hisobga oluvchi tuzatish koeffitsiyentiga ko‘paytiriladi, bu koeffitsiyent 0,5 dan kam bo‘lmasligi kerak. Hayot sug‘urtasida normativ marja mukofot zaxirasining 5 foizi sifatida hisoblanadi [3, 8–13-bandlar].

Haqiqiy marja o‘z mablag‘lari manbalaridan nomoddiy aktivlar, to‘lanmagan ustav kapitali, ta’sischilarga berilgan qarzlar, bog‘liq shaxslarning debitorlik qarzlari, uch oydan ortiq to‘lanmagan mukofotlar va boshqa likvid bo‘lmagan moddalarni chegirish orqali aniqlanadi [3, 14-band]. Bundan tashqari, Nizom bitta tavakkalchilik bo‘yicha majburiyatlarni o‘z mablag‘lari va zaxiralarining 20 foizi, jami majburiyatlarni o‘z mablag‘larining 200 foizi bilan cheklaydi, aktivlarni joylashtirishga limitlar va qayta sug‘urtalovchilarning reytingiga talablar belgilaydi [3, 15–35-bandlar]. Koeffitsiyent 0,5 dan pasayganda litsenziya to‘xtatiladi yoki bekor qilinadi [3, 48-band].

1-jadvalda milliy tizim Solvency II va ICS bilan uch ustun bo‘yicha qiyoslangan.

1-jadval.

To‘lov qobiliyati tizimlarining qiyosiy tahlili va muvofiqlik bahosi

Element	O‘zbekiston (amaldagi)	Solvency II / ICS	Baho
I ustun. Miqdoriy talablar			
1. Majburiyatlarni baholash	Normativ usulda hisoblangan zaxiralar	Eng yaxshi baho + tavakkalchilik marjasi	0
2. Kapital talabini kalibrlash	Mukofot/to‘lovlarning qat’iy foizi	1 yillik VaR 99,5% (SCR)	0
3. Faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha farqlash	Faqat 11, 13-klasslarga +50%	12 ta segment, alohida σ	1
4. Bozor va kontragent tavakkalchiligi	Faqat aktivlar limitlari orqali	Alohida kapital modullari	0
5. Qayta sug‘urtani hisobga olish	Tuzatish koeffitsiyenti (≥0,5), reyting talabi	Tavakkalchilikni kamaytirish + kontragent riski	1
6. O‘z mablag‘lari tarkibi	Chegirmalar ro‘yxati	Tier 1–3 tasnifi, cheklovlar	1
7. Ikki darajali aralashuv chegaralari	Koeff. <1 – buzilish; <0,5 – litsenziya	SCR va MCR (85% VaR)	1
8. Mutlaq minimal kapital	35–120 mlrd so‘m (2029-yilgacha oshadi)	2,7–4,0 mln yevro (AMCR)	2
II ustun. Boshqaruv va nazorat			
9. Rahbarlarga malaka talablari	PQ-108 bilan belgilangan	Fit & proper talablari	1
10. Tavakkalchiliklarni o‘z-o‘zini baholash (ORSA)	Mavjud emas	Majburiy, yillik	0
11. Aktuariy funksiyasi	Tayinlangan aktuariy, nizom rejada	Majburiy aktuariy funksiyasi	1
12. Tavakkalchilikni boshqarish va ichki nazorat	Qisman (AML/CFT ichki nazorati)	To‘liq boshqaruv tizimi	1
13. Nazorat tekshiruvi va qo‘shimcha kapital	Mavjud emas	SRP, capital add-on	0
14. Erta aralashuv va tiklanish rejalari	Foyda taqsimotini cheklash, vaqtinchalik ma’muriyat (rejada)	Tiklanish rejasi, MCR da moliyaviy sog‘lomlashtirish	1
III ustun. Oshkoralik			
15. Ommaviy hisobot	Bozor hisobotlarida kompaniyalar ko‘rsatkichlari	Yillik SFCR hisoboti	1
16. Nazorat organiga hisobot	Choraklik shakllar (1–6-ilovalar)	Choraklik va yillik QRT	2
17. Guruh nazorati	Mavjud emas	Guruh to‘lov qobiliyati	0
Jami muvofiqlik			**13/34 (38%)**

Manba: [1–5; 14; 15] asosida muallif tomonidan tuzilgan. Baho: 0 – mavjud emas; 1 – qisman yoki rejalashtirilgan; 2 – mos.

Qiyoslash natijalariga ko‘ra, milliy tizim xalqaro standartlarga birinchi ustun bo‘yicha 16 balldan 6, ikkinchi ustun bo‘yicha 12 balldan 4, uchinchi ustun bo‘yicha 6 balldan 3 ball bilan mos keladi. Eng katta

farqlar majburiyatlarni baholash usuli, kapital talabining tavakkalchilikka kalibrlanmaganligi, bozor tavakkalchiligi uchun kapitalning yo‘qligi hamda ORSA va nazorat tekshiruvi jarayonining mavjud emasligida kuzatiladi.

Mutlaq minimal kapital bo‘yicha esa milliy talablar xalqaro darajaga yaqinlashmoqda. PQ-108 ga ko‘ra ixtiyoriy umumiy sug‘urta uchun minimal ustav kapitali 35 mlrd so‘mdan 2029-yilga kelib 60 mlrd so‘mga, majburiy umumiy sug‘urta uchun 100 mlrd so‘mga oshiriladi [5]. Joriy kursda 35 mlrd so‘m 2,62 mln yevroga, 60 mlrd so‘m 4,49 mln yevroga, 100 mlrd so‘m 7,48 mln yevroga teng. Solvency II da mutlaq minimal kapital (AMCR) umumiy sug‘urta uchun 2,7 mln yevro, javobgarlik, kredit va kafillik klasslari uchun 4,0 mln yevro etib belgilangan [18]. Demak, minimal kapitalning o‘zi muammo emas: muammo kapital talabi sug‘urtalovchi qabul qilgan tavakkalchiliklar hajmiga yetarlicha bog‘lanmaganida.

Tavakkalchilik koeffitsiyentlaridagi farqning miqdoriy ko‘lami. 2-jadvalda 2025-yildagi umumiy sug‘urta mukofotlari bo‘yicha milliy mukofot usuli va Solvency II mukofot tavakkalchiligi koeffitsiyentlari asosidagi ko‘rsatkichlar qiyoslangan.

2-jadval.

Umumiy sug‘urtada milliy normativ marja va Solvency II mukofot tavakkalchiligi ko‘rsatkichi, 2025-yil

Sug‘urta guruhi	Mukofotlar, mlrd so‘m	Ulushi, %	Milliy marja, mlrd so‘m	Milliy koeff., %	Solvency II, mlrd so‘m	Solvency II koeff., %	Nisbat, marta
Kredit sug‘urtasi (14-klass va uning birikmalari)	3 646	28,0	729	20,0	1 931	53,0	2,65
Mol-mulk va javobgarlik (8, 9, 13, 16-klasslar va birikmalari)	5 166	39,7	1 097	21,2	1 466	28,4	1,34
Transport, aviatsiya va yuk (3–7-klasslar, 5+11)	1 764	13,5	383	21,7	635	36,0	1,66
Majburiy sug‘urta turlari	959	7,4	192	20,0	282	29,5	1,47
Ixtiyoriy javobgarlik (10–13-klasslar)	506	3,9	152	30,0	213	42,0	1,40
Baxtsiz hodisa, kasallik va tibbiy (1, 2, 18-klasslar)	430	3,3	86	20,0	91	21,2	1,06
Kafillik va moliyaviy tavakkalchiliklar (15, 16-klasslar)	257	2,0	51	20,0	107	41,4	2,07
Boshqa klass birikmalari	293	2,3	59	20,0	92	31,3	1,57
Jami umumiy sug‘urta	**13 021**	**100,0**	**2 749**	**21,1**	**4 817**	**37,0**	**1,75**

Manba: Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma’lumotlari [16], Nizom [3] va 2015/35-son reglament [15] asosida muallif hisob-kitoblari. Qayta sug‘urta va diversifikatsiya hisobga olinmagan.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2025-yilda umumiy sug‘urta mukofotlari 13,02 trln so‘mni tashkil etgan holda, milliy mukofot usuli bo‘yicha normativ marja 2,75 trln so‘mga (21,1 foiz) teng. Solvency II mukofot tavakkalchiligi koeffitsiyentlari qo‘llanilganda bu ko‘rsatkich 4,82 trln so‘mni (37,0 foiz) tashkil etadi, ya’ni 1,75 baravar yuqori. Bu raqam diversifikatsiya samarasini hisobga olmaydi, shu bilan birga zaxira, bozor va operatsion tavakkalchiliklar ham kiritilmagan. Shuning uchun u kapital talabining aniq bahosi emas, balki milliy tizimdagi yagona 20 foizlik koeffitsiyent turli faoliyat yo‘nalishlaridagi tavakkalchilik darajasini qanchalik farqlamasligini ko‘rsatadi.

Eng katta farq kredit sug‘urtasiga to‘g‘ri keladi. 14-klass va uning boshqa klasslar bilan birikmalari umumiy sug‘urta mukofotlarining 28,0 foizini tashkil etadi. Solvency II da kredit va kafillik sug‘urtasi uchun standart chetlanish 19 foiz, ya’ni mukofot tavakkalchiligi koeffitsiyenti 57 foiz bo‘lib, milliy 20 foizlik koeffitsiyentdan 2,65 baravar yuqori. Bu farq tasodifiy emas: 2025-yilda 14-klass bo‘yicha to‘lovlarning mukofotlarga nisbati 57,2 foizni tashkil etgan va bu klassga bozordagi barcha sug‘urta to‘lovlarining yarmidan ko‘pi to‘g‘ri kelgan [16]. Kredit sug‘urtasi bo‘yicha zararlar iqtisodiy tsikl bilan bog‘liq bo‘lib, kreditlar sifati yomonlashganda bir vaqtning o‘zida ko‘plab sug‘urtalovchilarga ta’sir qiladi.

Transport, aviatsiya va yuk sug‘urtasi hamda javobgarlik sug‘urtasida ham Solvency II koeffitsiyentlari milliy talablardan 1,4–1,7 baravar yuqori. Faqat baxtsiz hodisa, kasallik va tibbiy sug‘urtada ikki tizim koeffitsiyentlari deyarli teng. Demak, amaldagi normativ ayniqsa tavakkalchiligi yuqori bo‘lgan va tez o‘sayotgan klasslarda kapital talabini past baholaydi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati shundaki, kapital talablarini klasslar bo‘yicha farqlash avvalo tez o‘sayotgan va tavakkalchiligi yuqori bo‘lgan segmentlarga ta’sir qiladi. Bunday segmentlarda faol ishlayotgan sug‘urtalovchilar uchun qo‘shimcha kapital ehtiyoji yuzaga keladi, biroq bu ehtiyoj qayta sug‘urta orqali tavakkalchilikni uzatish va tarif siyosatini qayta ko‘rib chiqish hisobiga qisman qoplanishi mumkin. Shu sababli koeffitsiyentlarni oshirishni bosqichma-bosqich va oldindan e’lon qilingan jadval asosida amalga oshirish bozor barqarorligini saqlashga xizmat qiladi.

Muhokama (Обсуждение / Discussion)

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda to‘lov qobiliyati islohotining asosiy vazifasi minimal kapitalni yanada oshirish emas, balki kapital talabini tavakkalchilik tuzilishiga bog‘lashdir. Minimal ustav kapitali 2029-yilgacha Solvency II dagi mutlaq minimal darajadan yuqori bo‘ladi, biroq yagona 20 foizlik koeffitsiyent kredit sug‘urtasi kabi yuqori tavakkalchilikli klasslarni kam ta’minlaydi. Bu xulosa Eling va Holtsmyullerning tavakkalchilik o‘lchovi va kalibrlash darajasi tizimlar o‘rtasidagi asosiy farq ekani haqidagi xulosasiga mos keladi [7].

Shu bilan birga, Solvency II ni to‘liq ko‘chirib olish maqsadga muvofiq emas. Birinchidan, majburiyatlarni bozor qiymatida baholash uchun foiz stavkalarining ishonchli egri chizig‘i, chuqur obligatsiyalar bozori va yetarli aktuariy salohiyati zarur. Ikkinchidan, kichik bozorlarda standart formulaning murakkabligi kompaniyalar uchun nomutanosib xarajat tug‘diradi [6]. Uchinchidan, Kammins va boshqalar ko‘rsatganidek, kapital formulasining o‘zi bankrotlikni oldini olmaydi – u erta aralashuv mexanizmlari bilan birga ishlagandagina samarali bo‘ladi [10]. Shuning uchun boshqaruv va nazorat bo‘yicha ikkinchi ustunni rivojlantirish miqdoriy formuladan kam ahamiyatga ega emas [9].

Islohotning sifat jihati ham muhim. Solvency II tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kapital formulasi faqat birinchi ustunni tashkil etadi; ikkinchi ustundagi boshqaruv tizimi, ichki nazorat, aktuariy funksiyasi va tavakkalchilik hamda to‘lov qobiliyatini o‘z-o‘zini baholash (ORSA) sug‘urtalovchining o‘z tavakkalchilik profilini tushunishini ta’minlaydi, uchinchi ustundagi to‘lov qobiliyati va moliyaviy holat to‘g‘risidagi ommaviy hisobot esa bozor intizomini kuchaytiradi [9; 14]. O‘zbekistonda ORSA va ommaviy oshkoralik talablarini joriy etish katta moliyaviy xarajat talab qilmaydi, biroq nazorat organiga va investorlarga sug‘urtalovchilarning haqiqiy holatini ko‘rish imkonini beradi. Shu sababli sifat talablarini miqdoriy formuladan oldinroq joriy etish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning cheklovlari ham mavjud. Miqdoriy baholash bozor darajasida, qayta sug‘urta va diversifikatsiyasiz bajarilgan, kompaniyalar kesimidagi tahlil va boshqa tavakkalchilik modullari kiritilmagan. Muvofiqlik indeksi ekspert baholashga asoslangan. Bundan tashqari, PQ-108 da rejalashtirilgan ayrim chora-tadbirlarning amalga oshirilish holati ochiq manbalarda to‘liq aks etmagan, shuning uchun ular “qisman” deb baholandi.

Mutanosiblik tamoyili ham alohida e’tiborga loyiq. Solvency II direktivasi talablar sug‘urtalovchi faoliyatining xususiyati, ko‘lami va murakkabligiga mutanosib qo‘llanishini nazarda tutadi [14]. O‘zbekiston bozorida yirik davlat ishtirokidagi kompaniyalar bilan bir qatorda kichik xususiy sug‘urtalovchilar ham faoliyat yuritayotganini hisobga olsak, soddalashtirilgan hisob-kitob usullari va hisobot shakllari kichik kompaniyalarning moslashish xarajatlarini kamaytiradi va islohotning amaliy qo‘llanishini osonlashtiradi [11].

Xulosa va takliflar (Заключение / Conclusion)

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. O‘zbekistonning to‘lov qobiliyati talablari Solvency I modeliga asoslangan bo‘lib, Solvency II va ICS standartlariga muvofiqlik darajasi 34 balldan 13 ballni (38 foiz) tashkil etadi; eng zaif jihatlar – majburiyatlarni baholash, kapitalni kalibrlash, ORSA va nazorat tekshiruvi.

2. Yagona 20 foizlik mukofot koeffitsiyenti faoliyat yo‘nalishlari o‘rtasidagi tavakkalchilik farqini aks ettirmaydi: Solvency II koeffitsiyentlari bo‘yicha ko‘rsatkich bozor bo‘yicha 1,75 baravar, kredit sug‘urtasida esa 2,65 baravar yuqori.

3. Mutlaq minimal kapital bo‘yicha milliy talablar 2025–2029-yillardagi oshirishlar natijasida xalqaro darajadan yuqori bo‘ladi, shuning uchun islohot markazini kapitalning tavakkalchilikka sezgirligiga ko‘chirish lozim.

4. Kapital talablarini o‘zgartirish bilan bir vaqtda ikkinchi va uchinchi ustun elementlari – ORSA, aktuariy funksiyasi va to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichlarini ommaviy e’lon qilish – joriy etilishi lozim, chunki ular nisbatan kam xarajat bilan nazorat samaradorligini sezilarli oshiradi.

Ushbu xulosalar asosida tavakkalchilikka asoslangan to‘lov qobiliyati tizimiga o‘tishning quyidagi bosqichlari taklif etiladi:

– **birinchi bosqich (2026–2027-yillar):** amaldagi Nizomda mukofot va to‘lov usullari koeffitsiyentlarini faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha farqlash, birinchi navbatda kredit va kafillik sug‘urtasi (14, 15-klasslar) uchun oshirilgan koeffitsiyent joriy etish; to‘lov qobiliyati koeffitsiyentini kompaniyalar kesimida har chorakda ommaviy e’lon qilish;

– **ikkinchi bosqich (2027–2028-yillar):** zaxiralarni eng yaxshi baho asosida hisoblash bo‘yicha aktuariy standartlarini qabul qilish, aktuariy funksiyasi va ORSA ni majburiy qilish; standart formulaning soddalashtirilgan variantini sinov tariqasida (parallel hisob) joriy etish;

– **uchinchi bosqich (2029-yildan):** soddalashtirilgan standart formulaga to‘liq o‘tish, SCR va MCR kabi ikki darajali aralashuv chegaralarini belgilash, nazorat tekshiruvi jarayoni va qo‘shimcha kapital talab qilish huquqini joriy etish.

Mazkur ketma-ketlik minimal kapitalni oshirish jadvali bilan uyg‘unlashadi va sug‘urtalovchilarga yangi talablarga moslashish uchun yetarli vaqt beradi. Natijada kapital sug‘urtalovchilar qabul qilayotgan haqiqiy tavakkalchiliklarga mos bo‘lib, sug‘urta bozorining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati: (Список использованной литературы / References)

1. International Association of Insurance Supervisors. Insurance Core Principles and Common Framework for the Supervision of Internationally Active Insurance Groups. – Basel: IAIS, 2024.
2. International Association of Insurance Supervisors. IAIS adopts Insurance Capital Standard and other enhancements to its global standards to promote a resilient insurance sector: press release. – Basel, 5 December 2024.
3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008-yil 22-apreldagi 41-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risida”gi Nizom (Adliya vazirligida 2008-yil 12-mayda 1806-son bilan ro‘yxatga olingan, keyingi o‘zgartirishlar bilan). – lex.uz/acts/1354128.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-son “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – lex.uz/docs/4459802.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – lex.uz/docs/6824178.
6. Eling M., Schmeiser H., Schmit J.T. The Solvency II process: overview and critical analysis // Risk Management and Insurance Review. – 2007. – Vol. 10, No. 1. – P. 69–85.
7. Eling M., Holzmüller I. An overview and comparison of risk-based capital standards // Journal of Insurance Regulation. – 2008. – Vol. 26, No. 4. – P. 31–60.
8. Holzmüller I. The United States RBC standards, Solvency II and the Swiss Solvency Test: a comparative assessment // The Geneva Papers on Risk and Insurance – Issues and Practice. – 2009. – Vol. 34, No. 1. – P. 56–77.
9. Doff R. A critical analysis of the Solvency II proposals // The Geneva Papers on Risk and Insurance – Issues and Practice. – 2008. – Vol. 33, No. 2. – P. 193–206.
10. Cummins J.D., Harrington S.E., Klein R. Insolvency experience, risk-based capital, and prompt corrective action in property-liability insurance // Journal of Banking & Finance. – 1995. – Vol. 19, No. 3–4. – P. 511–527.
11. Sandström A. Handbook of Solvency for Actuaries and Risk Managers: Theory and Practice. – Boca Raton: CRC Press, 2011.
12. Baxriyev D.R. O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2023. – № 11–12. – B. 991–995.
13. Baxriyev D.R. O‘zbekiston sug‘urta bozorining moliyaviy barqarorligini baholash ko‘rsatkichlari // Moliyaviy texnologiyalar. – 2026. – № 5. – DOI: 10.5281/zenodo.23687339.
14. Directive 2009/138/EC of the European Parliament and of the Council of 25 November 2009 on the taking-up and pursuit of the business of Insurance and Reinsurance (Solvency II) // Official Journal of the European Union. – 2009. – L 335. – P. 1–155.
15. Commission Delegated Regulation (EU) 2015/35 of 10 October 2014 supplementing Directive 2009/138/EC (Solvency II) // Official Journal of the European Union. – 2015. – L 12. – P. 1–797.
16. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorining 2025-yil yakunlari bo‘yicha umumiy ko‘rsatkichlari. – Toshkent, 2026. – napp.uz.
17. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Xorijiy valyutalarning so‘mga nisbatan rasmiy kurslari, 30.10.2026. – cbu.uz.